

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 12 (2023)

TOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI

A.Mamajonov

FarDU tilshunoslik kafedrasi professori (f.f.d.)

O.Abozov

FarDU tilshunoslik kafedrasi o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Toponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish tilshunoslik, tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik va geografiya sohalaridagi ko'plab masalalarini hal etishda muhim vosita bo'lib, bir qator qimmatli ma'lumotlar va ilmiy dalillar olish imkonini beradi. O'zbek tili leksikologiyasining tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolaridan biri toponimlarning lug'aviy-ma'noviy o'ziga xosliklarini o'rganish hamda mavzuiy jihatdan tasnif qilish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Til va tafakkur, toponim, xoronim, oykonim, astionim, formant, komonim, agionim, oronim, dromonim.

Til insonlar o'rtasidagi aloqa-aratashuv vositasigina emas, balki ularning ongu tafakkuri, yashash tarzi, tarixi, madaniyati, orzu-umidlari haqida ma'lumot beruvchi va hatto kelajagini ham belgilab beruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy tushunchadir.

Shuning uchun ham bu nodir hodisa, insoniyatning buyuk belgisi faqat tilshunoslikning emas, balki ko'plab fan sohalarining qadim zamonlardan buyon o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Aynan kummulyativ funksiyasi sababli ham til ajdodlar va avlodlar o'rtasida ma'naviy ko'priq vazifasini o'tay oladi. Tilda tarixiy shakllarni o'rganish, tahlil qilish, baholash imkon mavjud. Bu tili o'rganilayotgan xalqning o'tmishi haqida tasavvur hosil qilish va shuning barobarida bugungi ahvolini baholash va kelajagini bashorat qilish imkonini beradi. Aynan shu belgisiga ko'ra, til jamiyat hayotida o'ta qimmatli ma'naviy boylikka aylanadi.

So'z yasalishi masalalari tarkibida katta guruhni tashkil etuvchi toponimlar hamda ularning yasalish usullari til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Chunki ko'plab joy nomlari kelib chiqishiga ko'ra juda qadimiy hisoblanib, o'z lingvistik tuzilishiga ko'ra ma'lum davr va hozirgi davr tilining xususiyatlarini ifoda etadi.

Eng qadimgi yozma manbalarda qayd qilingan geografik nomlar til taraqqiyoti bilan bog'liq qator hodisalarga oydinlik kiritadi. Bu nomlar keyingi davrlarda butunlay boshqa ma'noda izohlanishi mumkin. Ammo toponimlar tarkibida ular o'z yasalish manbasi va usulini to'liq saqlaydi. Toponimlar tahlilida nomlar etimologiyasini to'g'ri izohlash juda muhim hisoblanadi.

Toponimika boshqa ko'plab fan tarmoqlari singari bir necha fan tarmoqlarining integratsiyalashuvida ish ko'radi. Uning tadqiqot sohalari va xulosalari tilshunoslik, geografiya, tarix va qator ijtimoiy fanlar bilan bog'lanadi. Toponimlarni ushbu fanlar bilan aloqadorligini o'rgangan olim S.Qorayev toponimlarning o'zbek tilida mavjud asosiy formantlari, tiplari va modellarini tasniflaydi. Bunda olim *obod* so'zi yordamida hosil qilingan toponimlar, *-kant*, *-kent* (*-kand*), *-iston*, *-rabot/-raboz* formantlari mavjudligini ta'kidlab o'tgan.

Toponimlar tadqiqi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda olimlar hududiy xoslanish bilan birga tarixiy yondashuvga alohida e'tibor qaratadilar. Toponimikada amalga oshirilgan tadqiqotlar

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 12 (2023)

umumiylar xususiy xarakterga ega bo'lib, tilda mavjud ushbu birliklarning umumiylar lingvistik xususiyatlari yoki ajratib olingan kichik siyosiy-ijtimoiy hududlar doirasida ish olib borilganligi bilan ham izohlanadi.

Onomastik birliklar muayyan hududdagi geografik relyef va uning tabiiy tuzilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Buning sababi shundaki, Yer yuzi manzaralari turli-tuman tuzilishga ega bo'lib, onomastik birliklar, bиринчи navbatda, ularning tabiiy belgilaridan kelib chiqqan holda, ularni nomlaydi. Masalan, tog' yoki sahro, daryo va dengiz kabi tushunchalar mavjudki, ular hududning tabiiy hamda ijtimoiy belgilari asosida shakllangan nomlar paradigmasi sifatida yuzaga kelgan. Aytish mumkinki, toponimika bo'yicha dunyo tilshunosligida muayyan tasniflar yaratilgan va ularning maxsus terminologik tarkibi shakllantirilgan. Jumladan, toponimlar bilan bog'liq quyidagi guruuhlar farqlanadi: a) xoronimlar – ma'muriy hudud: mamlakat, davlat va viloyatlar nomlari; b) oykonimlar – aholi yashaydigan hudud: turarjoy, maskan nomlari; d) astionimlar – shahar nomlari; e) komonimlar – qishloq, ovul nomlari; f) oronimlar – tog', qir, adir, jar va tepaliklar nomi; g) agronimlar – dala va yer maydonlari nomlari; h) nekronimlar – muqaddas qadamjolar, mozor, maqbara va qabristonlar nomi; i) dromonimlar – yo'l nomlari; j) drimonimlar – daraxtzor, o'rmonzor nomlari; k) agionimlar – muqaddas deb hisoblanuvchi va mashhur shaxslarning atoqli otlari bilan nomlanuvchi joy nomlari va boshqalar. Ko'rindiki, mazkur terminlarning shakllanishida g'arb terminologiyasi dominantligi mavjud. O'zbek tilida qo'llaniluvchi toponimlarning umumiylar lingvistik atamalari shakllantirilmagan, ya'ni o'zbek tilida yuqorida tasnidiga keltirilgan guruuhlarni ularga mos tarzda nomlovchi muqobil birliklar yo'q. Ushbu atamalar joy nomini anglatishiga ko'ra, umumiylar belgisiga ega bo'lsa, hududlarning jo'g'rofiy tuzilishi va ma'muriy hamda ijtimoiy jihatni bilan farqlanuvchanlik xususiyatiga ega.

Joy nomlari arxisemasi bilan bog'liq bo'lgan etnonim tushunchasi ham mavjudki, ular joy nomlarini etnos, ya'ni xalq nomlaridan kelib chiqib nomlaydi. Joy nomlarining o'rganilishi tilshunoslikning areal lingvistika masalalari bilan bevosita bog'liq. Areallik ham hududga ko'ra farqlanish bo'lib, muayyan hudud kishilari nutqida kuzatiladigan o'ziga xosliklarni tadqiq qilsa, joy nomlari masalasida tadqiqotlar olib boruvchi toponimika ma'muriy va geografik hududlarning nomlari yuzasidan ilmiy mushohada yuritadi. Toponimlarning lingvistik tahlili bir necha fanlarning o'zaro uyg'unlashuvi va bir-birini to'ldirishi asosida mukammallikka erishadi. Bunda tarix, geografiya, siyosatshunoslik hamda jamiyatshunoslik masalalari o'zaro uyg'unlashib, bir-birini quvvatlaydi.

Farg'ona vodiysi bilan bog'liq toponimik birliklar hamda ularning tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar ikki katta guruhga bo'linadi. Bunda bиринчи guruhdagi ishlar toponimikaning umumiylar nazariy masalalariga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi guruhga mansub tadqiqotlarda ma'lum hududlarning aynan joy nomlari obyekt qilib olinadi va ularda toponimlar tarixi, etimologiyasi, tarkibi hamda kelib chiqish omillari kabi masalalar o'rganiladi. Birinchi turkum tadqiqotlardan farqli ravishda ikkinchi turkum tadqiqotlarida, ko'pincha, shu hududda yashovchi mutaxassislar faoliyat olib boradilar va o'z hududlarining nomlanishi, tarixi va boshqa turli jihatlarini ichki vatanparvarlik ruhiga tayangan holda, ilmiy asoslashga harakat qilish bilan birga, shu hududda yashovchi aholi vakillarining nomlar haqidagi, xoh asosli, xoh asossiz bo'lsin, talqinlari, tushuncha va izohlaridan foydalanadilar. Shu ma'noda tadqiqotchilar orasida o'zi yashab turgan hudud toponimiyasi tadqiqi bilan shug'ullangan olimlar ko'p uchraydi. Jumladan, tilshunos olim N.Oxunovning «Топонимия Кокандской группы районов» mavzusida yozilgan nomzodlik ishi Qo'qon hududi tumanlaridagi toponimlarga bag'ishlangan. Keyingi ishlarida olim tadqiqot obyektini yanada kengaytirib, Farg'ona viloyati miqyosida tadqiqotlar olib borgan.

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 12 (2023)

Uning «Farg‘ona viloyati oykonimlarining nomlanish xususiyatlari» nomi ostida e’lon qilingan ishlari bunga dalil bo‘ladi.

Etnotoponimlar topominlar giperonimining tarkibiga kiradi. O‘zbek toponomiyasida etnotoponimik xarakterdagи topominlar salmoqli o‘rin tutadi. Buning sababi tarixiy taraqqiyot davrlari bilan aloqador bo‘lib, qadimda qabila, urug‘ nomlarining mavjudligi va bu bevosita shu aholi yashaydigan hududlarning toponimlarga ham ko‘chirilishi tilimizda ular miqdorining ortishiga sabab bo‘lgan.

Sohaga oid tadqiqotlarda toponimlarining turli asoslarga ko‘ra tasniflarini uchratish mumkin. Bunda toponimlarining lingvistik tasnifida asosan, semantik hamda struktural yondashuvlar ustuvorlik qiladi. Xususan, A.Turobov Samarqand viloyati etnonimlarini tahlil qilar ekan, ularni tasniflashda semantik hamda struktural yondashuvlarga asoslanadi. Bunda semantik jihatdan tarkibida rang-tus bildiruvchi leksemali etnonimlar, miqdor bildiruvchi leksemalar ishtirokida shakllangan etnonimlar, obyektning o‘rni va xususiyatini bildiruvchi etnonimlar va tarkibida hajm-o‘lchov ma’nolarini bildiruvchi leksemalar mavjud bo‘lgan turlariga ajratgan bo‘lsa, struktural jihatdan qo‘shma so‘z holatidagi, so‘z birikmasi va yasama so‘z holidagi etnonimlar guruhlari mavjudligini ta’kidlaydi. Yasama etnonimlarning hosil qilinishida -li, -chi, -lik/-liq/-luq, -loq, -cha, -chak, -q, -qa, -lar formantlari ishtirokini alohida izohlaydi.

O‘zbek tilida olib borilgan, umuman olganda, toponimikaga oid aksariyat tadqiqotlarda hududlar kesimida yondashish ustuvorlik qilib, bu hududlar ma’muriy bo‘linish yoki jo‘g‘rofik guruhlanishlar assosida olib borilgan.

Adabiyotlar:

1. Охунов Н. Топонимия Коқандской группы районов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978.
2. Охунов Н., Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона, 2010.
3. Туробов А.М. Самарқанд вилояти этоним ва этноойконимларининг таҳлили: филол. фанл. номзоди ... диссер. – Тошкент, 1999. – 130 б.
4. Abbozov, O. Q. (2021). General properties of oronyms. ISJ Theoretical & Applied Science,(12), 389-391.
5. Ibragimova, E. I., Zokirov, M. T., Qurbonova, S. M., & Abbozov, O. Q. (2018). Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy internetkonferensiya materiallari: Ilmiy ishlar to“ plami. *Farg‘ ona*, 113.
6. Mahamadzoda, A. P. (2022, December). SAIF FARGHANI UND DIE SITUATION SEINES LEBENS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 9, pp. 33-35).
7. Maxamadzoda, A. P. (2022). Life and Works of Saifiddin Muhammad Fargani. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 127-132.
8. Mamajonov, A. (1989). Linguistics of text. T.: Fan.
9. Mamajonov, A., & Abdupattoyev, M. (2002). Text syntax. *Fergana*. pp. 42, 43.
10. Mamajonov, A., & Abdupattoyev, M. (2016). Matn nazariyasi. *Farg‘ „ona, “Vodil” nashriyoti*, 112.
11. MAMAJONOV, A., & SAMINOV, A. (2019). Oxymoron as one of the modes of forming unfamiliar phrases in speech. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 88-90.
12. Kuldashev, N., Parviz, A., & Avazbek, D. (2022). Fazli Namangani’s “Majmuai Shoiron” Review Zullisonayn Issue. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 429-433.

**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR
RESEARCH & DEVELOPMENT**

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 12 (2023)

13. Maftuna, G. (2022). Methodology of organizing problem lessons in higher education. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 72-77.
14. Shukurov, R., & Juraboyeva, G. (2019). The analyses of the toponyms of valley in the work "The History of Iskhaqhon Ibrat". *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(1), 87-91.
15. O'rinboyeva, E. (2020, December). Expression of contradiction in proverbs. In *Конференции*.